

ISSN 2181-6883

PEDAGOGIK MAHORAT

Ilmiy-nazariy va metodik jurnal

1-son (2022-yil, fevral)

Jurnal 2001-yildan chiqa boshlagan

Buxoro – 2022

PEDAGOGIK MAHORAT

Ilmiy-nazariy va metodik jurnal 2022, № 1

Jurnal O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi OAK Rayosatining 2016-yil 29-dekabrda qarori bilan **pedagogika** va **psixologiya** fanlari bo‘yicha dissertatsiya ishlari natijalari yuzasidan ilmiy maqolalar chop etilishi lozim bo‘lgan zaruriy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan.

Jurnal 2001-yilda tashkil etilgan.

Jurnal 1 yilda 6 marta chiqadi.

Jurnal O‘zbekiston matbuot va axborot agentligi Buxoro viloyat matbuot va axborot boshqarmasi tomonidan 2016-yil 22-fevral № 05-072-sonli guvohnoma bilan ro‘yxatga olingan.

Muassis: Buxoro davlat universiteti

Tahririyat manzili: O‘zbekiston Respublikasi, Buxoro shahri Muhammad Iqbol ko‘chasi, 11-uy

Elektron manzil: ped_mahorat@umail.uz

TAHRIR HAY’ATI:

Bosh muharrir: Adizov Baxtiyor Rahmonovich – pedagogika fanlari doktori, professor

Bosh muharrir o‘rinbosari: Navro‘z-zoda Baxtiyor Nigmatovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Mas’ul kotib: Hamroyev Alijon Ro‘ziqulovich – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent

Xamidov Obidjon Xafizovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Begimqulov Uzoqboy Shoyimqulovich, pedagogika fanlari doktori, professor

Mahmudov Mels Hasanovich, pedagogika fanlari doktori, professor

Ibragimov Xolboy Ibragimovich, pedagogika fanlari doktori, professor

Yanakiyeva Yelka Kirilova, pedagogika fanlari doktori, professor (N. Rilski nomidagi Janubiy-G‘arbiy Universitet, Bolgariya)

Qahhorov Siddiq Qahhorovich, pedagogika fanlari doktori, professor

Mahmudova Muyassar, pedagogika fanlari doktori, professor

Kozlov Vladimir Vasilyevich, psixologiya fanlari doktori, professor (Yaroslavl davlat universiteti, Rossiya)

Mustafa Said Arslon, , filologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)

Tadjixodjayev Zokirxo‘ja Abdusattorovich, texnika fanlari doktori, professor

Amonov Muxtor Raxmatovich, texnika fanlari doktori, professor

O‘rayeva Darmonoy Saidjonovna, filologiya fanlari doktori, professor

Durdiyev Durdimurod Qalandarovich, fizika-matematika fanlari doktori, professor

Mahmudov Nosir Mahmudovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Olimov Shirinboy Sharopovich, pedagogika fanlari doktori, professor

Chariyev Irgash To‘rayevich, pedagogika fanlari doktori, professor

Qiyamov Nishon Sodiqovich, pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

Qahhorov Otabek Siddiqovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

To‘xsanov Qahramon Rahimboyevich, filologiya fanlari doktori, dotsent

Hayitov Shodmon, tarix fanlari doktori, professor

To‘rayev Halim Hojiyevich, tarix fanlari doktori, professor

Rajabov Qahramon, tarix fanlari doktori, professor

Shomirzayev Maxmatmurod Xuramovich, pedagogika fanlari doktori, professor

Muhitdinova Xadicha Sobirovna, pedagogika fanlari doktori, professor

Niyozmetova Roza Hasanovna, pedagogika fanlari doktori, professor

Qurbonova Gulnoz Ne‘matovna, pedagogika fanlari doktori (DSc)

ПЕДАГОГИЧЕСКОЕ МАСТЕРСТВО

Научно-теоретический и методический журнал

№ 1, 2022

Журнал включен в список обязательных выпусков ВАК при Кабинете Министров Республики Узбекистан на основании Решении ВАК от 29 декабря 2016 года для получения учёной степени по педагогике и психологии.

Журнал основан в 2001г.

Журнал выходит 6 раз в год

Журнал зарегистрирован Бухарским управлением агентства по печати и массовой коммуникации Узбекистана.

Свидетельство о регистрации средства массовой информации № 05-072 от 22 февраля 2016 г.

Учредитель: Бухарский государственный университет

Адрес редакции: Узбекистан, г. Бухара, ул. Мухаммад Икбол, 11.

e-mail: ped_mahorat@umail.uz

РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ:

Главный редактор: Адизов Бахтиёр Рахманович – доктор педагогических наук, профессор

Заместитель главного редактора: Навруз-заде Бахтиёр Нигматович – доктор экономических наук, профессор

Ответственный редактор: Хамраев Алижон Рузикулович – доктор педагогических наук (DSc), доцент

Хамидов Обиджон Хафизович, доктор экономических наук, профессор

Бегимкулов Узакбай Шаимкулович, доктор педагогических наук, профессор

Махмудов Мэлс Хасанович, доктор педагогических наук, профессор

Ибрагимов Холбой Ибрагимович, доктор педагогических наук, профессор

Янакиева Елка Кирилова, доктор педагогических наук, профессор (Болгария)

Каххаров Сиддик Каххарович, доктор педагогических наук, профессор

Махмудова Муяссар, доктор педагогических наук, профессор

Козлов Владимир Васильевич, доктор психологических наук, профессор (Ярославль, Россия)

Мустафа Саид Арслан, доктор филологических наук, профессор (Турция)

Таджиходжаев Закирходжа Абдусаттарович, доктор технических наук, профессор

Аманов Мухтор Рахматович, доктор технических наук, профессор

Ураева Дармоной Саиджановна, доктор филологических наук, профессор

Дурдыев Дурдымурад Каландарович, доктор физико-математических наук, профессор

Махмудов Насыр Махмудович, доктор экономических наук, профессор

Олимов Ширинбой Шарофович, доктор педагогических наук, профессор

Чариев Иргаш Тураевич, доктор педагогических наук, профессор

Киямов Нишон Содикович, доктор педагогических наук, профессор

Каххаров Отабек Сиддикович, доктор экономических наук (DSc)

Тухсанов Кахрамон Рахимбоевич, доктор педагогических наук (DSc)

Хайитов Шодмон, доктор исторических наук, профессор

Ражабов Кахрамон, доктор исторических наук, профессор

Тураев Халим Хожиевич, доктор исторических наук, профессор

Мухитдинова Хадича Собировна, доктор педагогических наук, профессор

Ниёзматова Роза Хасановна, доктор педагогических наук, профессор

Шомирзаев Махматмурод Хурамович, доктор педагогических наук (DSc)

Курбонова Гулноз Нёматовна, доктор педагогических наук (DSc)

PEDAGOGICAL SKILLS

The scientific-theoretical and methodical journal

№ 1, 2022

The journal is submitted to the list of the scientific journals applied to the scientific dissertations for **Pedagogic** and **Psychology** in accordance with the Decree of the Presidium of the Ministry of Legal office of Uzbekistan Republic on Regulation and Supervision of HAC (The Higher Attestation Commission) on December 29, 2016.

The journal is published 6 times a year

The journal is registered by Bukhara management agency for press and mass media in Uzbekistan.

The certificate of registration of mass media № 05-072 of 22 February 2016

Founder: Bukhara State University

Publish house: Uzbekistan, Bukhara, Muhammad Ikbol Str., 11.

e-mail: ped_mahorat@umail.uz

EDITORIAL BOARD:

Chief Editor: Pedagogical Sciences of Pedagogy, Prof. Bakhtiyor R. Adizov.

Deputy Editor: Pedagogical Sciences of Economics, Prof. Bakhtiyor N. Navruz-zade.

Editor: Doctor of Pedagogical Sciences(DSc), Asst. Prof. Alijon R. Khamraev

Doctor of Economics Sciences Obidjan X. Xamidov

Doctor of Pedagogical Sciences, Prof. Uzakbai Sh. Begimkulov

Doctor of Pedagogical Sciences, Prof. Mels Kh. Mahmudov

Doctor of Pedagogical Sciences, Prof. Holby I.Ibrahimov

Ph.D. of Pedagogical Sciences, Prof. Yelka K. Yanakieva (Bulgaria)

Doctor of Pedagogical Sciences, Prof. Siddik K. Kahhorov

Doctor of Pedagogical Sciences, Prof.M.Mahmudova

Doctor of Psychology, Prof. Vladimir V. Kozlov (Yaroslavl, Russia)

Doctor of Philology, Prof. Mustafa Said Arslon (Turkey)

Doctor of Technical sciences, Prof. Mukhtor R.Amanov

Doctor of Technical sciences, Prof. Zakirkhodja A. Tadjikhodjaev

Doctor of Philology, Prof. Darmon S. Uraeva

Doctor of Physical and Mathematical Sciences, Prof. Durdimurod K. Durdiev

Doctor of Economics, Prof. Nasir N. Mahmudov

Doctor of Pedagogical Science, Prof. Shirinboy Sh. Olimov

Doctor of Pedagogical Science, Prof. Nishon S. Kiyamov

Doctor of Economics Sciences Otabek S. Kahhorov

Doctor of Philology Kaxramon R. Tuxsanov

Doctor of Historical science, Prof. Sh. Hayitov

Doctor of Historical science, Prof. Halim H. Turaev

Doctor of Historical science, Prof. Q. Rajabov

Doctor of Pedagogical Sciences, Prof. Maxmatmurod X. Shomirzaev

Doctor of Pedagogical Sciences, Prof. Xadicha S. Shomirzaev

Doctor of Pedagogical Sciences, Prof. Roza X. Niyozmetova

Doctor of Pedagogical Sciences Gulnoz N. Qurbonova

MUNDARIJA

PEDAGOGIKA VA PSIXOLOGIYA	7
G'olibjon OTAMURODOV, Elyor ALKAROV, Bahodir XURRAMOV. Malaka oshirish jarayonlari tahlili va uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimi imkoniyatlari	7
Riskeldi TURGUNBAYEV. O'quv tezaurusi va talaba leksikoni orasidagi munosabat haqida	13
Ixtiyor XOLIQOV. Oliy ta'lim muassasalari talabalari o'rtasida pedagogik kompetensiyani shakllantirish	17
Венера КАРИМОВА. Анализ международного опыта повышения квалификации педагогических и руководящих кадров высших образовательных учреждений	19
Zuvur TOIROV. Ta'lim tizimida qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanishni o'rganish masalalari, yechimlari va istiqbollari	24
Shoira USMANOVA. Kasbiy shakllanishda ijtimoiy faollik va intellekt dinamikasi	28
Diyora AVEZMURATOVA. Talabalarining o'quv - biluv faoliyatini rivojlantirishda muammoli ta'limning pedagogik-psixologik o'ziga xosliklari	31
Dilnoza AXMEDOVA. Kredit-modul tizimida talabalar mustaqil ishlarini tashkil etishning asosiy shakllari	34
Farrux RAXIMOV. Chaqiriqqacha harbiy ta'lim yo'nalishlarida virtual ta'lim texnologiyalari yordamida chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik fanini o'qitish samaradorligini oshirish	37
Matluba ZARIPOVA. Bo'lajak o'qituvchilarni modulli o'qitishga tayyorlash texnologiyasining nazariy asoslari	40
A'lamjon IBRAGIMOV. O'qituvchining kognitiv kompetentligi tushunchasi: konseptual yondashuv	44
Sohibjamol JO'RAYEVA. Pedagog imijini tavsiflovchi shaxslilik xususiyatlari	50
Shamsiya ALIMOVA. O'quvchilarda o'z faoliyatlarini baholash va tashxislash ko'nikmalarini shakllantirish	57
Xasan BAXROMOV. Tibbiy oliy ta'limda o'qituvchi - vrach - klinist munosabatlari (xorijiy tajriba misolida)	62
Shoira DUSMUXAMEDOVA. Kattalar ta'limi samaradorligida psixologik va androgogik bilimlarning ahamiyati	66
Firuz KADIROVA. Research methods of "teaching reading skills to the students of higher education"	70
Zilola RASULOVA. Bo'lajak texnologiya fani o'qituvchilarining ijodkorligini rivojlantirishda interfaol metodlardan foydalanish	75
Chori XAYRULLAYEV. Yangi O'zbekiston sharoitida yoshlar ma'naviyatini yuksaltirishning asosiy omillari	79
Xurshida YULBARSOVA. Zamonaviy ta'lim tizimida kommunikativ kompetentlikni shakllantirishning integratsion shart-sharoitlari	83
Ихтиёр КУРБАНОВ. Проблемы столкновения идей сформированно инновационной личности современного государства	86
Abdimumin RASULOV, Muhammadrasul IBRAGIMOV. Pedagogik qobiliyatni baholash usuli	90
Marhabo ASHUROVA. Husayn Voiz Koshifiyning "Futuvvatnomai Sultoniy" asarida ustoz-shogird munosabatlarining yoritilishi	96
Farida OCHILOVA, Durdona DAVLATOVA. Bolalar nevrozini bartaraf etishda art-terapiya usullaridan foydalanish	100
Ziyodullo ELOV. Nutqda uchraydigan buzilishlar va ularni yuzaga keltiruvchi sabablarning bola ruhiyatiga psixologik ta'siri	103
Anjim SHAMSHETOVA. Ekologiya va biz	106
Firuz SIROJIDDINOVA. Mehnat faoliyatining psixologik tarkibi xususida mulohaza	109
Shavkat G'AFOROV. Ijtimoiy madaniy muhit va shaxsning psixologik salomatligi	111
Go'zal YUNUSOVA. O'smirlarda deviant xulqni shakllantiruvchi ijtimoiy-psixologik omillar va uning profilaktikasi	115
MAKTABGACHA VA BOSHLANG'ICH TA'LIM	119
Nigora MUXITDINOVA. "Ilk qadam" o'quv dasturida jismoniy tarbiya masalalarining yoritilishi	119
Go'zal QURBONOVA. Maktabgacha ta'lim tashkilotlari katta guruh bolalarida gender tolerantlikni shakllantirishda o'yin texnologiyalari	124
Shabnam YUSUFZODA. Boshlang'ich sinf husnixat darslarini innovatsion texnologiyalar asosida tashkil etish	127
O'g'iljon OLLOQOVA. Intensiv ta'lim asosida boshlang'ich sinf ona tili darslarini tashkil etish	131
FILOLOGIYA VA TILLARNI O'QITISH	135
Muqaddas TO'RABOYEVA. 8-sinf ona tili darslarida topshiriqlar asosida o'quvchilarning lingvistik kompetensiyasini rivojlantirish metodikasi	135
Дилором ШОДИЕВА. Проектная работа по приобретению общих и профессионально-языковых компетенций студентами вузов на примере организации полилога-дискуссии	139
Akram QILICHEV. RUs xalq maqollarida "ayol" konseptining salbiy xususiyatlari	145

Shamsiya ALIMOVA
Buxoro davlat universiteti
pedagogika kafedrası o‘qituvchisi

O‘QUVCHILARDA O‘Z FAOLIYATLARINI BAHOLASH VA TASHXISLASH KO‘NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH

Maqolada o‘quvchilarda o‘z faoliyatini baholash va tashxislash ko‘nikmasini shakllantirishning pedagogik-psixologik asoslarini belgilash va aniqlash masalalari o‘z ifodasini topgan.

Kalit so‘zlar: o‘quvchi, faoliyat, baholash, ko‘nikma, rivojlantirish, maqsad, xususiyat, tashxis.

В статье рассматриваются вопросы определения и определения педагогико-психологических основ формирования умения оценивать и диагностировать свою деятельность у учащихся начальных классов.

Ключевые слова: ученик, деятельность, оценка, умение, развитие, цель, особенность, диагностика.

The article deals with the issues of defining and determining the pedagogical and psychological foundations for the formation of the ability to evaluate and diagnose one’s activity in primary school students.

Key words: student, activity, assessment, skill, development, goal, feature, diagnostics.

Kirish. Hozirgi kunda ta’lim tizimi oldiga o‘quvchilarda shunday ko‘nikmalarni shakllantirish vazifasi turibdiki, bu ko‘nikmalar jadal rivojlanayotgan jamiyatga shaxsning moslashuvini ta’minlashga xizmat qilishi lozim. Shuningdek, uzluksiz ta’lim tizimida yangi malakalarni egallashga imkoniyat yaratilishi talab etiladi. Bu jarayonda o‘quvchida hayotiy vaziyatlar, holatlar, betaraf obyektlar, shaxsiy bilim va ko‘nikmalar, muayyan faoliyatning egallanganlik darajasini baholash va tashxislash ko‘nikmasi shakllangan bo‘lishi lozim.

O‘quvchilarda o‘z faoliyatlarini baholash va tashxislash ko‘nikmalarining shakllanishi natijasida ularda talabchanlik, tanqidiy nuqtayi nazar qaror topa boradi.

O‘quv-biluv jarayonining samaradorlik darajasi nafaqat o‘quvchining bilimlarini yaxshi o‘zlashtirishi, balki uning o‘z faoliyatini baholash jarayonining holatiga ham bog‘liq. O‘quvchilarning o‘quv-biluv jarayonidagi yutuqlari ularda o‘z faoliyatlarini baholash ko‘nikmalarining shakllanganlik darajasi bilan belgilanadi. Shuning uchun o‘qituvchi o‘quv topshiriqlarini takomillashtirish davrida o‘quvchilarda o‘z faoliyatlarini baholash ko‘nikmalarini shakllantirishni maqsad qilib qo‘yishi kerak.

Asosiy qism. O‘quvchini shaxs sifatida shakllantirish muammosining markazida ularda o‘z faoliyatini baholash va tashxis qilish ko‘nikmalarini hosil qilish va rivojlantirish masalasi turadi. O‘z faoliyatini baholash ko‘nikmasi bu o‘zini anglashni rivojlantirishning asosiy komponenti hisoblanadi. Ya’ni o‘quvchi o‘zining jismoniy kuchi, aqliy imkoniyatlari, kundalik xatti-harakatidagi asosiy maqsad, atrofda odamlar va narsalarga munosabatini anglaydi.

Baho – ham falsafiy ham pedagogik tushuncha bo‘lib, insonning faoliyatiga, xulqiga bo‘lgan munosabat, ularning ahamiyatini, muayyan axloq me’yorlari va tamoyillariga mosligini ko‘rsatish demakdir. Biz ko‘rib chiqayotgan muammo doirasida o‘quvchining o‘z faoliyatini baholashi uning egallagan bilimlari, ko‘nikmalari, shaxsiy sifatleri va xatti-harakatiga bo‘lgan munosabati ifodasidir.

Tashxislash esa arabcha so‘z bo‘lib, shaxslantirish ma’nosini bildiradi.

O‘quvchilarning o‘z faoliyatlarini baholash va tashxislash ko‘nikmalarini izchil shakllantirishda subyekt-subekt munosabatlariga asoslangan o‘qituvchi hamda o‘quvchilar hamkorligi nihoyatda zarurdir.

O‘quvchilarning o‘z faoliyatlarini baholash va tashxislash ko‘nikmalarini shakllantirishda o‘qituvchi hamda o‘quvchi hamkorligi quyidagilardan iborat:

o‘qituvchi ko‘rsatadigan ta’sir (texnologiyalar, metodlar, vositalar va boshqalar);

o‘quvchilar tomonidan amalga oshiriladigan teskari aloqa;

baholash va tashxislash ko‘nikmalarining shakllanishi jarayonida o‘quvchilar amalga oshiradigan harakatlarning yo‘nalishi;

baholash va tashxislash ko‘nikmalarining shakllanish bosqichlari.

O‘quvchi o‘z faoliyatini baholash va tashxislash davomida o‘quv-biluv jarayonining suyekti sifatida namoyon bo‘ladi. O‘qituvchilarga o‘quvchilarning o‘z faoliyatlarini baholash va tashxislash ko‘nikmalarini tizimli tarzda shakllantirish imkonini beradi.

O‘quvchilarning o‘z faoliyatlarini baholash va tashxislash ko‘nikmalarini shakllantirishga yo‘naltirilgan jarayon quyidagi qarama-qarshiliklarni bartaraf etishga qaratilishi kerak:

a) o‘quvchining o‘qish, o‘rganishga bo‘lgan ijobiy munosabati bilan o‘zini o‘quv jarayonining subyekti sifatidagi o‘rnini yetarli tushunmasligi, shuningdek, ta‘lim jarayonini baholash va tashxislash yo‘llarini bilmasligi;

b) o‘quvchilarning baholash va tashxislash faoliyatlarining zarurligini to‘la anglashi va ushbu faoliyatni amalga oshirish uchun ko‘nikmalarining yetarli emasligi;

d) o‘quvchilarda o‘z faoliyatlarini baholash va tashxislash ko‘nikmalarining shakllanganligi va uni qo‘llash uchun tajribaning yetishmasligi orasidagi qarama-qarshiliklarni o‘qituvchi o‘z vaqtida bartaraf etishi maqsadga muvofiqdir.

Ko‘rsatib o‘tilgan birinchi ziddiyatni o‘quvchilarda baholash va tashxislash ko‘nikmalarini shakllantirishning dastlabki bosqichidayoq baratarf etish mumkin. Chunki birinchi bosqichning asosiy maqsadi o‘quvchilarda o‘z faoliyatlarini baholash va tashxislashning maqsadi va mazmuni haqida tasavvur hosil qilishdan iboratdir.

Mazkur yo‘nalishning vazifalari bilan bog‘liq holda quyidagilarni aniqlash lozim:

- o‘quvchilarning o‘z faoliyatlarini baholash va tashxislash zarurligi haqidagi tushunchalarini kengaytirish;

- o‘quvchilarda o‘z faoliyatlarini baholash va tashxislash jarayonining zarurligini tushunishga mayl uyg‘otish;

- kichik maktab yoshidagi o‘quvchining hissiy holatini hisobga olgan holda uni o‘z faoliyatini baholash va tashxislashga yo‘naltirish;

- o‘quvchi shaxsining o‘zini anglashi, bilim, ko‘nikma, malakalarini tatbiq eta olishi va o‘z faoliyatini takomillastirishi uchun qulay pedagogik vaziyat yaratish kabilar.

O‘quvchilarda o‘z faoliyatlarini baholash va tashxislash ko‘nikmalarini shakllantirish uchun dastlab qulay pedagogik vaziyat vujudga keltirilishi kerak. Bu jarayonda o‘quvchining qiziqishlari, mayllari, o‘ziga xosligi hamda mavjud tajribasi hisobga olinishi lozim.

Mazkur pedagogik vaziyat quyidagi xususiyatlarga ega bo‘lishi kerak:

- o‘quvchining ruhiy-hissiy holatini faollashtirish;

- o‘quvchining o‘z faoliyatini baholash va tashxislash jarayoni haqidagi bilimlarini kengaytirish;

- o‘quvchida o‘z faoliyatini baholash va tashxislash ko‘nikmalarining hosil bo‘lishiga imkoniyat yaratish;

- o‘quvchida o‘z faoliyatini baholash va tashxislash uchun sezgirlik va mayl uyg‘otish kabilar.

O‘quvchilarning o‘z faoliyatlarini baholash va tashxislash ko‘nikmalarini shakllantirishda quyidagi holatlar alohida ahamiyatga ega:

- o‘quvchining turli o‘quv vaziyatlarini tahlil qilishda baholash va tashxislash ko‘nikmalarini shakllantirishning mohiyati;

- o‘quvchi uchun qiziqarli, maroqli bo‘lgan misollar va dalillarning darsliklarda o‘qituvchi tomonidan bayon qilinishi;

- o‘quvchilarda o‘z faoliyatlarini baholash va tashxislash ko‘nikmalarini shakllantirishda muammoli vaziyatlarni vujudga keltirish muhim didaktik ahamiyat kasb etishi;

- o‘quvchilarda o‘z faoliyatlarini baholash va tashxislash ko‘nikmalarini shakllantirishning ijtimoiy va shaxsiy ahamiyatlilik darajasini ochib berish pedagogika fanining muhim vazifalaridandir.

Barcha vositalar quyidagi vaziyatlarda o‘zaro o‘xshashdir. Agar muayyan pedagogik vaziyatda o‘quvchilarning o‘z faoliyatlarini baholash va tashxislash ko‘nikmalari ularda o‘quv jarayoniga ichki munosabatlarni aniqlasa, shakllantirsa va o‘zgartira olsa, bunday vaziyatda barcha vositalar o‘zaro mos keladi. Bunda hayotiy vaziyatlarning tahlilini o‘quv vaziyati bilan bog‘liq holda amalga oshirish maqsadga muvofiqdir. Bunday vaziyatlar jumlasiga tabiatni asrash, o‘simliklar va qushlarga g‘amxo‘rlik ko‘rsatish, atrof-muhit tozaligiga rioya qilish, uy, maktab hamda jamoat joylaridagi jihozlarga ehtiyotkorona munosabatda bo‘lish kabilarni ko‘rsatib o‘tish mumkin. Chunonchi, uyda stollar, xona devorlari, maktabda esa partalarg chizish mumkin emas. “Siz bunday o‘quvchilarning harakatini qanday baholaysiz?”, “O‘zingiz o‘simliklar, qushlar, uy va maktab jihozlariga nisbatan qanday munosabatda bo‘lasiz?”, “Atrof-muhitni iflos qilayotgan tengdoshlaringizga nisbatan qanday munosabatda bo‘lasiz?” va h.k.

O‘qituvchi o‘quvchilarning mazkur savollarga bergan javoblarini tahlil qilish asosida ularda o‘zlari va tengdoshlari faoliyatlarini baholash va tashxislash ko‘nikmalarini shakllantirib boradi. Bu o‘rinda hissiyotlarga berilgan o‘quvchilarning kamchiliklarini asta-sekin o‘zlariga tushuntirib, baratarf etishga harakat qilishi lozim. Bunday pedagogik harakat birinchi navbatda o‘quvchilarda o‘z faoliyatlarini baholash va tashxislash ko‘nikmalarini shakllantirib, mustahkamlab borishga qaratiladi.

Muammoli vaziyatlar hosil qilishdan koʻzda tutiladigan asosiy maqsad oʻquvchi oldiga qoʻyilgan muammoni ular tomonidan qanday hal qilinganligini baholash va tashxislashdan iborat. Shu yoʻl bilan oʻqituvchi oʻz oʻquvchilarini qoʻyilgan muammoning yechimi qay darajada toʻgʻri yoki notoʻgʻriligini baholash va tashxislashga oʻrgatadi. Oʻzi yoki sinfdoshinging faoliyatini baholay hamda tashxislay olgan oʻquvchilarda bunday koʻnikmalar jadal rivojlanib, mustahkamlanib boradi. Ularda sinchkovlik, sezgirlik, kuzatuvchanlik qaror topadi.

Oʻquvchilarda oʻz faoliyatlarini baholash va tashxislash koʻnikmalarini shakllantirish uchun ularda ruhiy-hissiy holat barqaror boʻlishi kerak. Buning uchun oʻqituvchi oʻquvchining oʻzi yoki oʻrtogʻining faoliyatiga bergan toʻgʻri bahosini muntazam taqdirlab borishi lozim. Ayniqsa, oʻquvchilarni tinchlantiruvchi mashqlarni bajaritirish natijasida ular orasida vujudga kelgan tarang vaziyat bartaraf etiladi. Xotirjam harakat qilayotgan oʻquvchi oʻzi va oʻrtoqlarining faolyaitini bir qadar toʻgʻri baholay va aniq tashxislay oladi. Baholash va tashxislash koʻnikmalarini shakllantirishda oʻquvchilar oʻzaro bir-birlarining yutuq va kamchiliklarini koʻra olishlari muhim ahamiyatga ega. Buning uchun oʻquvchilar orasida oʻzaro ishonch va bir-birini tushunish vaziyatini yaratish talab etiladi. Oʻquvchi oʻzi yoki oʻrtogʻining faoliyatini baholayotganida yoki tashxis qoʻyayotganida oʻqituvchi tomonidan pedagogik qoʻllab-quvvatlovga ega ekanligini his etib turishi lozim.

Oʻqituvchi oʻquvchilarning oʻz xatolarini aniqlashga oʻrgatib borish jarayonida ularni kamchiliklarga yoʻl qoʻyishdan qoʻrqmaslikka odatlantirishi zarur. Chunki oʻquvchida xato qilishdan choʻchish kayfiyati mavjud boʻlsa, u oʻzi va oʻrtoqlarining kamchiliklarini topa olmaydi. Murakkab masalalarni yechish, ijodiy faoliyat koʻrsatish imkoniyatlarini cheklaydi. Murakkabliklardan choʻchish hissini hosil qiladi. Oʻqituvchi oʻquvchi faoliyatini baholashda dastlab uning ijobiy tomonlarini koʻrsatib oʻtishi, keyin yoʻl qoʻygan kamchiligi haqida xabardor qilishi kerak. Uning yutuqlarini bir qadar boʻrttirib, olqishlab, boshqa oʻquvchilarga namuna qilib koʻrsatish alohida ahamiyatga ega.

Oʻquvchilarda oʻz faoliyatlarini baholash va tashxislash koʻnikmalarini shakllantirishda ular yoʻl qoʻyadigan kamchiliklar doirasini aniqlash dolzarb masalalardan biridir.

Bilimlarni oʻzlashtirish jarayonida oʻquvchi xato qilishi muqarrar. Biroq oʻqituvchi u yoʻl qoʻygan kamchiliklarni dalillar bilan isbotlab berishi lozim.

Muhokama va natijalar. Agar oʻquvchi oʻz xatosini oʻzi topib tuzatsa, uni dastlabki vaqtlarda alohida taqdirlash lozim. Bunday hollarda oʻquvchining bahosini pasaytirish tavsiya etilmaydi.

Baholash va tashxislash jarayonining dastlabki bosqichini quyidagilar bilan belgilash mumkin:

a) oʻquvchilarda oʻz faoliyatlarini baholash va tashxislash uchun yangi mayllarning hosil boʻlishi va barqarorlashuvi;

b) oʻquvchilarga berilgan topshiriqlarning bajarilish natijasini baholash uchun baholash va tashxislash koʻnikmalarini qoʻllash;

d) oʻquvchilar oʻz faoliyatlarini baholash va tashxislash koʻnikmalarini qoʻllashlari uchun ehtiyojning vujudga kelishi;

e) baholash, tashxislash, oʻz-oʻzini baholash, oʻz-oʻzini tashxislash koʻnikmalarining shaxsiy hamda ijtimoiy mohiyatini anglash;

f) oʻquv jarayonining teng huquqli subekti sifatida oʻqituvchi bilan hamkorlikka kirishish kabilar.

Oʻquv jarayonining asosiy maqsadlaridan biri oʻquvchilarning oʻz faoliyatlarini baholash va tashxislash koʻnikmalarini shakllantirishdan iborat. Ushbu maqsadni amalga oshirish uchun bir qator pedagogik vazifalarni hal etish kerak. Ular quyidagilar:

- oʻquvchilarda oʻz faoliyatlarini baholash va tashxislash sohasida barqarorlashgan mayllarni mustahkamlash;

- oʻquvchilarga oʻz faoliyatlarini baholash va tashxislash faoliyatini anglash usullarini oʻrgatish;

- oʻquvchilarda oʻz faoliyatlarini baholash va tashxislash yoʻli bilan oʻzining oʻzligini qaror toptirish, takomillashtirish, tatbiq etish holatini vujudga keltirish.

Bunday vazifalarni hal qilish uchun barqaror, ilmiy jihatdan asoslangan didaktik shart-sharoitlarni vujudga keltirish kerak. Bu shart-sharoitlar quyidagilardan iborat:

- oʻquvchi bilan oʻqituvchining hamkorligiga asoslangan subyekt-subyekt darajasidagi oʻquv-biluv faoliyatini tashkil etish;

- baholash va tashxislash tizimining tarkibiy qismlarini topish uchun jamoaviy izlanishlar oʻtkazish.

Bu jarayonda baholash va tashxislash koʻnikmalarining tarkibi bir xil qolipda emas, balki oʻziga xos boʻladi. Bunda izlanish guruhi aʼzolarining yosh xususiyatlari, oʻziga xosligi hamda oʻquv jarayonining pedagogik-psixologik xususiyatlari ham alohida ahamiyat kasb etadi;

- baholash va tashxislash koʻnikmalarini shakllantirishga qaratilgan oʻquv topshiriqlari tizimini aniqlash;

- o‘quvchilarda o‘z faoliyatlarini baholash va tashxislash ko‘nikmalarini bosqichma-bosqich shakllantirishga e‘tibor qaratish kabilar.

O‘quvchilarda o‘z faoliyatlarini baholash va tashxislash ko‘nikmalarini shakllantirish jarayoni didaktik nuqtayi nazardan bir qadar murakkab mikrotizim hisoblanadi. Biz o‘quvchilarda o‘z faoliyatlarini baholash va tashxislash ko‘nikmalarini shakllantirishga qaratilgan didaktik mikrotizimda o‘quvchi hamda o‘qituvchi faoliyatini yagona maqsadga yo‘naltirishga intildik.

Bu tizimda o‘qituvchi o‘quvchilarning o‘z faoliyatlarini baholash va tashxislash jarayonini tashkil etganda ularga ko‘proq mustaqillik berishi kerak. O‘quvchilar o‘z faoliyatlarini mustaqil tarzda muntazam tahlil qilishga odatlantirilishlari lozim. O‘qituvchi shu maqsadda har bir darsda ma‘lum miqdorda vaqt ajratishi talab etiladi. O‘qituvchi o‘quvchilarni har doim o‘zlari o‘zlashtirgan bilim va ko‘nikmalarini tahlil qilishga odatlantirishi zarur.

O‘quvchilarga turli mazmundagi baholash va tashxislash vazifalarini bajartirish maqsadga muvofiqdir. Bunday masalalar o‘quvchilar tajribasida keng qo‘llaniladigan holatlar bilan bog‘liq bo‘lishi lozim. Masalan, o‘quvchilar bilan o‘qituvchi, ayni bir o‘quvchi bilan sinfdoshlari orasidagi munosabat bilan bog‘liq topshiriqlar alohida ahamiyatga ega. Bunday masalalarni yechish jarayonida o‘quvchilar hukm chiqaradilar, umumiy yondashuvlarni izlaydilar, muammoning qulay yechimini topishga harakat qiladilar. Bunday masalalar integral xarakterga egadir. Baholash va tashxislash ko‘nikmalari tizimi o‘quvchilarda quyidagicha namoyon bo‘ladi:

1. “Vaziyatlar, vazifalar bilan bog‘liq holda qanday harakatni amalga oshiramiz va qaysi o‘quv predmeti tarkibida?” degan savolga javob topish. Masalan, ona tili darslarida gap tuzishga oid mashqlar bajarish; o‘qish darslarida ifodali o‘qish; tabiat darslarida O‘zbekistonning suv havzalari haqidagi ma‘lumotlarni o‘zlashtirish kabi.

2. Narsa-buyumlarning belgilarini farqlash ko‘nikmasi. Bu ko‘nikma yordamida topshiriqlarning to‘g‘ri yoki noto‘g‘ri bajarilganligini aniqlash mumkin. Masalan, barglar bahor va yozda yam-yashil, kuzda sariq tusga kirishi; olmaning qizil, ko‘k, sariq ranglarda bo‘lishi; quyosh haroratining o‘tkirliigi; tuxumning ovalsimon, olchaniing dum-dumaloqligi va hokazo.

3. O‘quvchilarning o‘z kamchiliklarini topa olish ko‘nikmasi. Masalan, men kitobni yaxshi saqlay olmadim, yirtib qo‘ydim; Akram partada to‘g‘ri o‘tira olmaydi; u sanashda va raqamlarni to‘g‘ri yozishda xato qildi; men uy vazifasini noto‘g‘ri bajardim, chunki uni tushunmadim, buning sababi darsda partadoshim bilan gaplashib o‘tirganimda.

4. Xato yo‘l qo‘yilgan nuqtani topish. Masalan, men uchinchi misolni noto‘g‘ri yechdim; ikkinchi gapda tinish belgisini qo‘ymadim; yozuv daftarimdagi bo‘sh katakchalarni to‘ldira olmadim; daraxt yaproqlarini noto‘g‘ri bo‘yadim tarzida.

5. Nima uchun xatoga yo‘l qo‘yganligining sabablarini aniqlash. Masalan, karra jadvalni bilmaganligim uchun men yechgan misolning javobi noto‘g‘ri chiqdi; imlo qoidalarini yodlamaganim tufayli diktant yozganda xatolarga yo‘l qo‘ydim; O‘zbekiston xaritasini yaxshi bilmaganligim uchun bu hududdagi daryolarni ko‘rsatib bera olmadim;

6. O‘z xatolarini tuzata olish ko‘nikmasi. Ushbu ko‘nikmani shakllantirish va mustahkamlash uchun o‘qituvchi o‘quvchilarga ularning yozma ishlarini tarqatib, xatolarini topish va tuzatishlari haqida ko‘rsatma berishi kerak. O‘z xatolarini to‘g‘ri topib, tuzata olgan o‘quvchilarni o‘z vaqtida rag‘batlantirib borish maqsadga muvofiqdir.

7. Tuzatilgan xatolarni tekshirish ko‘nikmasi. Ushbu ko‘nikmani shakllantirish va mustahkamlashda o‘quvchilarga o‘rtoqlarining ishlari tarqatilib, ularning xatolarini qanday tuzatganliklarini aniqlash haqida vazifa beriladi. Bu ko‘nikma o‘quvchilarning o‘z faoliyatlarini baholash va tashxislash ko‘nikmalarini o‘zaro bog‘lash, rivojlantirish imkonini beradi. Shu bilan bir qatorda ushbu ko‘nikma yuqoridagi barcha ko‘nikmalarni integral tarzda o‘zida mujassamlashtiradi hamda tashxislash faoliyatining asosini tashkil etadi.

O‘quvchilarda baholash va tashxislash ko‘nikmalarini bosqichma-bosqich shakllantirib borish jarayonida amaliy mashqlardan unumli foydalanish lozim. O‘quvchilarda baholash va tashxislash ko‘nikmalarini shakllantirish uchun o‘qituvchi amaliy mashqlar to‘plamini ishlab chiqishi kerak. Bunday mashqlarni tanlashda sinfdagi o‘quvchilarning bilim darajasi, dunyoqarashi, intiluvchanligi, tanqidiy nuqtayi nazarining shakllanganlik darajasini alohida hisobga olish talab etiladi.

O‘quvchilarning o‘z faoliyatlarini baholash va tashxislash ko‘nikmalarini qay darajada egallaganliklarini hisobga olgan holda turli mashqlar, masalalar, topshiriqlar hamda didaktik o‘yinlarni taqdim etish mumkin. O‘quvchilarning o‘z faoliyatlarini baholash va tashxislash ko‘nikmalarining egallaganlik darajasini aniqlashda kuzatish, savol-javob, nazorat ishlari, nazorat ishlarini o‘zaro tekshirtirish, anketa kabi metodlardan foydalanish lozim. Bunday mashqlar jumlasiga:

1. O‘qituvchining yordamida bajariladigan reproduktiv mashqlar. Bunday mashqlarni bajarish jarayonida o‘qituvchi o‘z o‘quvchilariga yaqindan ko‘maklashadi va ularga xatolarni qanday izlash, topish yo‘llarini ko‘rsatadi.

2. Reproaktiv mashqlarning yana bir turi xatolarni qanday topish o‘quvchilarga aytilmaydi. Ularning o‘zi kamchiliklarni izlash va bartaraf etish yo‘llarini aniqlashlari lozim.

3. O‘quvchi oldiga mustaqil vazifalar qo‘yadigan, uni izlanishga undaydigan qisman mahsuldor mashqlarni bajarish vazifasini qo‘yish.

4. Baholash va tashxislash obyektini mustaqil izlashga undovchi ijodiy mashqlar. Bunday mashqlar muammoni o‘ziga xos tarzda hal qilish imkonini beradi.

O‘quvchilarda o‘z-o‘zini takomillashtirish, mukammallashtirish orqali baholash va tashxislash ko‘nikmalarini shakllantirishga yo‘naltirilgan mashqlarni tanlashda quyidagi qonuniyatlarga tayanish lozim:

- birinchi turkumga mansub mashqlar o‘zida kuzatuvchanlik, harakatni baholash, harakat natijasini to‘g‘ri tavsiflash va o‘z xatolarini tuzatish imkonini berishi kerak;

- ikkinchi yo‘nalishdagi topshiriqlarda o‘quvchining ishidagi xatolarni uning sinfdoshlari izlaydi. Tashxislash va tuzatish faoliyati esa uning o‘zi tomonidan amalga oshiriladi;

- uchinchi turkumga mansub mashqlarda o‘quvchi o‘z faoliyatini mustaqil baholaydi, tashxislaydi va unga tuzatishlar kiritadi.

O‘z-o‘zini baholash va tashxislash faoliyati o‘quvchilarning bu tadbirga ruhiy jihatdan tayyor bo‘lishlarini taqozo qiladi. Shu bilan birga xatolardan cho‘chish, o‘zini shaxs sifatida namoyon qila olish va o‘z faoliyati natijasini anglab yetishga tayyor bo‘lishini talab etadi.

Xulosa. Baholash va tashxislash ko‘nikmalarini shakllantirish jarayonining har bir bosqichida maqsad va vazifalarining o‘zgarishi baholash va tashxislash ko‘nikmalarini shakllantirish metod va vositalarining murakkablashuviga olib keladi. Chunki o‘quvchilarda o‘z faoliyatlarini baholash va tashxislash ko‘nikmalarini shakllantirishga yo‘naltirilgan modelning barcha elementlari o‘zaro bog‘liq va aloqadordir.

Adabiyotlar

1. “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonun. –Toshkent, 2020-y.

2. Abdullayeva Sh.A. O‘spirinlarning tarbiyalanganlik darajasini diagnostika qilish va xulqidagi nuqsonlarni korreksiyalashning pedagogik asoslari. 13.00.01.Pedagogika nazariyasi va tarixi ixtisosligi bo‘yicha doktorlik diss. Qori Niyoziy nomli O‘zPFITI, 2005. -228 bet

3. Asilova G.A. Umumiy o‘rta ta’limda tanlash usulidagi testlardan foydalanishning pedagogik shart-sharoitlari. 13.00.01.Pedagogika nazariyasi va tarixi ixtisosligi bo‘yicha nomzodlik dissertatsiyasi. Qori Niyoziy nomli O‘zPFITI, 1997. -137 bet.

4. Berdiyev G. O‘quvchilarda shaxslararo munosabatlarning o‘ziga xos xususiyatlari.// Xalq ta’limi, №6, 1998, 61-65-bet.

Xasan BAXROMOV

Buxoro davlat tibbiyot instituti assistenti

TIBBIY OLIY TA'LIMDA O'QITUVCHI - VRACH - KLINIST MUNOSABATLARI (XORIJIY TAJRIBA MISOLIDA)

Maqolada mamlakatimizda tibbiyot sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar mazmun-mohiyati ochib berilgan. Mamlakatimizda sog'liqni saqlash tizimini isloh qilish bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirishda erishilgan natijalar o'rganildi. Malakali kadrlar tayyorlash bo'yicha xorijiy tajriba tahlil qilingan. O'qituvchi-shifokor-klinistning o'zaro hamkorligini kuchaytirish omillariga, shuningdek, tibbiy ta'limni tartibga soluvchi me'yoriy hujjatlar mazmuniga alohida e'tibor qaratilgan.

Kalit so'zlar: o'qituvchi-klinik, xususiy klinika, zamonaviy tizim, tibbiy yordam sifati, malakali kadrlar.

В статье раскрывается содержание проводимых реформ в области медицины в нашей стране. Изучены результаты, достигнутые в реализации мероприятий по реформированию системы здравоохранения в стране. Анализируется зарубежный опыт по подготовки квалифицированных кадров. Уделяется особое внимание факторам активизации взаимодействия педагог-врач-клинициста, а также содержанию нормативных документов, регламентирующих медицинское образование.

Ключевые слова: преподаватель-врач-клиницист, частная клиника, современная система, качество медицинского обслуживания, квалифицированный персонал.

The article reveals the content of the ongoing reforms in the field of medicine in our country. The results achieved in the implementation of measures to reform the health care system in the country have been studied. The foreign experience in training qualified personnel is analyzed. Special attention is paid to the factors of enhancing the interaction of the teacher-doctor-clinician, as well as the content of the normative documents governing medical education.

Key words. Teacher-clinician, private clinic, modern system, quality of medical care, qualified staff.

Kirish. Ma'lumki, mustaqillik yillarida respublikamizda sog'liqni saqlash tizimini isloh qilish chora-tadbirlarini amalga oshirish doirasida aholiga tibbiy yordam ko'rsatishning zamonaviy tizimini shakllantirish borasida muayyan natijalarga erishildi [1, 6]. Davlatimiz rahbari 2017-yil 12-dekabr kuni tibbiyot sohasidagi dolzarb masalalar muhokamasiga bag'ishlangan yig'ilishda mamlakatimizda 11 mingdan ziyod shifokor yetishmayotgani, shu sababli tibbiyot muassasalari aholiga sifatli tibbiy yordam ko'rsata olmayotganini tanqid qilgandi. Sir emas, hududlarda tibbiy kadrlar yetishmovchiligi bilan bog'liq muammolar ham juda ko'p kuzatildi. Joylarga chiqib mavjud holat o'rganilganda, sog'liqni saqlash sohasining birlamchi tizimida kadrlar ta'minotida nomutanosibliklar borligi ayon bo'ldi. Prezidentimizning 2020-yil 24-yanvar kuni Parlamentga yo'llagan Murojaatnomasida [7] ham sog'liqni saqlash tizimini yanada rivojlantirish, tibbiy xizmat sifatini oshirish masalalari diqqat markazida bo'ldi. Ayniqsa, shifokorlarning jamiyatdagi o'rni va maqomini kuchaytirish, mavqei mustahkamlash, ularga hurmat-izzat ko'rsatish, munosib mehnat sharoitini yaratish va ish haqlarini oshirish, moddiy-ma'naviy rag'batlantirish bo'yicha amaliy chora-tadbirlar ko'rinishi, shu jumladan, gematologiya, virusologiya, immunologiya sohalari, dori-darmon va tibbiyot texnikasi uchun ajratiladigan mablag'larni ko'paytirish lozimligi alohida ta'kidlandi.

Asosiy qism. Rivojlangan mamlakatlar tajribasiga ko'ra, universitet professor-o'qituvchilari o'rtasida "uchyakkilik"ni rivojlantirish hamma davrlarda dolzarb bo'lib kelgan. Bu tushunchani Yevropa mamlakatlari, AQSh va MDH ba'zi respublikalarining sog'liqni saqlash tizimida uchratish mumkin.

Tibbiyot tarixidan ma'lumki, G'arbda uchyakkilikning yorqin namunasi shifokor-olim-o'qituvchi V.Osler edi. 1800-yillarning oxirida Kanada va Qo'shma Shtatlarda zamonaviy nozik ta'limning kashshofi bo'lgan Osler 1905-yilda Oksford universitetida qirolik tibbiyot professori etib tayinlangan edi. U Xopkins universitetidan Oksfordga kelgach, Angliyadagi universitetlarda tadqiqot va klinikagacha bo'lgan tibbiy ta'lim klinik amaliyot va shifoxonalarda diplomdan keyingi ta'limdan ajratilganligini aniqladi [8].

V.Osler tibbiy ta'lim sohasi va bemorlarni parvarish qilishda kelajakdagi yutuqlar tadqiqotlar asosida kelib chiqishini ishonch bilan ta'kidlab, u ingliz tibbiyot muassasasini universitet professori homiyligida tibbiy ta'lim va bemorlarni parvarish qilish bo'yicha tadqiqotlarni birlashtirishga chaqirdi. Uningcha "professorning uchta vazifasi bor: bemorlarga yaxshi g'amxo'rlik qilish, kasalliklarni o'rganish, talabalar va hamshiralarga dars berish". Ta'kidlashicha, buyuk ilmiy kashfiyotlar "bilimning o'zi uchun bilimga intilish"